Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Global kommunikatsiya va raqamli iqtisodiyot davrida xalqaro til bilishning ahamiyati va istiqbollari

Ra’no Musoqul qizi Tangirova*

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

✉ tangirovarano0@gmail.com

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar

global kommunikatsiya, qiyosiy tahlil, raqamli iqtisodiyot, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarjimaviy kompetensiya, xalqaro til kompetensiyasi

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan bugungi davrimizda global kommunikatsiya ko'plab ilmiy va ma'naviy jihatdan xalqaro aloqalarni jadallashtirib, xalqaro til bilishni muhim vositaga aylantirmoqda [1]. Xorijiy tillarni ommalashtirish harakati bu ehtiyojni eng kerakli ustuvor vazifa sifatida baholaydi [2], Raqamli texnologiyalar esa tillarni puxta o'rganishda yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda [3]. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu yo‘nalishning muhim asoslarini belgilab bermoqda [4].

Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki — xalqaro til bilishning kommunikativ, kasbiy va madaniyatlararo funksiyalarini fan ko'lamida aniqlash hisoblanadi. Bunday masala O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan rivojlanish strategiyalari va jarayonlari bilan mos , uyg'unlikni aks ettiradi [5]. Tadqiqotimizning obyekti sifatida global kommunikatsiya va raqamli iqtisodiyotga oid ilmiy-normativ matnlarni oladigan bo'lsak, tadqiqot predmeti sifatida esa xalqaro til bilishning lingvistik, tarjimaviy jihatlarining namoyon bo‘lishi nazarda tutiladi.

Xalqaro til bilishning ahamiyati va istiqbollarini tahlil qilish orqali to‘liq asoslash maqsad qilingan. Bu o'z navbatida bir qancha muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Masalan, 1) manbalarni tasnif qilish; 2) qiyosiy leksik tahlil o‘tkazish; 3) ekvivalentlik va stilistik tomonlarini izohlash; 4) tarixiy-qiyosiy mezonlarni belgilashdan iborat. Metodologiya nazaridan yondashilsa, chog‘ishtirma tilshunoslik, matn tahlili bilan diaxronik o‘rganish uyg‘unlashtiriladi. Tadqiqot davomida 10 ga yaqin manba, arxiv materiali hamda tarjima nazariyasi qarashlari o'zaro qiyoslanadi [6]. Xalqaro til bilishning istiqbollari «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida nazarda tutilgan uzoq muddatli taraqqiyot vazifalari bilan bog‘liq holda qaraladi [7]. Kommunikativ, raqamli-iqtisodiy va tarjimaviy funksiyalarning yagona qiyosiy, solishtiruv talqinda asoslanishi ilmiy yangiliklar sifatida qaraladi va natijalar keyingi tahlilda tekshiriladi [8].

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Kirishda ta'kidlanib o'tilgan tarixiy-qiyosiy mezonlar asosida xalqaro til bilishning funksional mazmuni uch yo‘nalishda ajratildi: kasbiy muloqot, tarjimaviy vositachilik va madaniyatlararo talqin kabilardir. Man-

bashunoslik tahlili xalqaro til bilishni oddiy lug‘aviy zaxira sifatida emas, raqamli iqtisodiyotdagi bilim, xizmat va ma’lumot almashinuvini boshqaruvchi muhim vosita ekanligini bildirdi. Raqamli platformalar kengaygani sari til bilishning qiymati va ehtiyoji ham o'sib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan, tillarning sintaksis, stilistika va terminologik aniqligini bilish ham e'tiborni tortadigan jihatlardan biri bo'lib bormoqda[9]. Xulosa o'rnida tarixiy-qiyosiy tahlil tilni kommunikativ vazifani bajarishdan tortib, kasbiy va texnologik vazifaga ega ekanligini izohlaydi.

Jadval. *Xalqaro til bilish funksiyalarining qiyosiy talqini*

Tahlil yo‘nalishi	**Asosiy birlik**	**Yetakchi funksiya**	**Matnni sharhlash**
Tarixiy-qiyosiy tahlil	Termin va sintaktik model	Kasbiy almashinuv	Mazmunning funksional kengayishi
Tarjimashunoslik	Ekvivalent birlik	Tarjimaviy vositachilik	Yo‘qotish hamda qo‘shimchaning izohlanishi
Manbashunoslik	Rasmiy hujjat va raqamli matn	Madaniyatlararo muvofiqlashtirish	Kontekstual ma’noning aniqlanishi

Manba: muallifning kontent-kategorik tahlili

Bu jadvalda ko‘rsatilganidek, uch yo‘nalish o‘rtasidagi farq obyekt tanlovida emas, mazmunni to'g'ri baholashda namoyon bo‘ladi. Qiyosiy - leksik tahlil terminlarning bir tildagi nominativ vazifasi boshqa tilda esa raqamli interfeys vazifasiga aylanishini tahlil qiladi. Tarjima jarayonida ekvivalentlik so‘zma-so‘z moslik bilan cheklanmaydi; birliklar tarkibidagi metafora va majoziy ma'nolari ham qayta talqin qilinadi. Masalan, «til — ko‘prik» obrazida ko‘prik predmet emas, kommunikativ uzilishlarni bartaraf etuvchi vosita sifatida anglashiladi. Til bilishning muhim jihati global kommunikatsiyada tushunilish, do'stona aloqalarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Matnni chuqur tahlil qilish ya'ni mazmunini sharhlashda rasmiy strategiyalar bilan badiiy matnlar o‘rtasidagi ma’no farqlari o'rganiladi. Ilmiy jihatdan bu siyosiy hujjatlarda xalqaro til bilish rivojlanish resursi sifatida ko'riladi. Badiiy jihatdan esa o‘zga madaniyatni anglash kaliti sifatida qaraladi [1]. Binobarin CEFR tizimining faoliyatga yo‘naltirilgan tavsifi til egasini tayyor iboralarni takrorlovchi shaxs emas, vaziyatga mos ma’no yaratuvchi, tildan oqilona foydalana olishini belgilaydi [8]. Shu sababli kognitiv lingvistika, matn tahlili va jonli muloqot tizimi tahlili raqamli kasbiy muloqotdagi yashirin taxminlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Manbashunoslik qatlamida xalqaro til bilishning istiqbollari sun’iy intellekt vositalari bilan raqobat emas, ulardan nafaqat to'g'ri foydalanish, balki til o'rganishning muammolariga yechim bo'layotgan tomonlari bilan uzviy bog'liq. UNESCO hujjatida ta’limga qaratilgan raqamli texnologiyalar insoniy pedagogik maqsadlar va tenglik me'zonlari bilan chegaralanishi zarurligi qayd etiladi [10]. Demak, tarjimashunoslik va til ta’limi uchun ustuvor vazifa avtomatik tarjimani almashtirish emas, uning semantik, madaniy va etik cheklovlarini baholay oladigan kompetensiyani shakllantirishdir. Bu xulosa yakunida bugungi bir qancha sun'iy intellekt vositalari insoniy omillarning o'rnini to'liq egallay olmasligi, faqatgina kasbiy, tarjimaviy va madaniyatlararo funksiyalarda yordamchi bir vosita bo'lishinigina belgilab beradi.

XULOSA

Tahlilimiz so'ngida xalqaro til bilishni kommunikativ vositadan kengroq, raqamli-iqtisodiy faoliyatni bog‘lovchi lingvistik vosita sifatida belgilanishini ta'kidladik. Uning istiqboli shuki, kommunikativ, tarjimaviy va madaniyatlararo qatlamlarni qiyosiy tipologiya, jonli muloqotdagi tahlili hamda tarjimashunoslik doirasida yagona talqinga birlashtirishidadir.

Tarjimashunoslik va til ta’limida ekvivalentlikni baholash, konseptual metaforani anglash, sintaksis va stilistika tafovutlarini izohlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ustuvor bo‘lishi lozim. Bunday yondashuv xalqaro til bilishning kasbiy qo‘llanishini ya'ni o'z ma'nosidan uzoqlashmagan holda matn tahlili bilan mustahkamlaydi.

Navbatdagi bosqichda turli raqamli janrlar, kasbiy muloqot jarayoni va diaxronik materiallar qiyoslanib, avtomatlashtirilgan tarjimaning semantik siljishlari hamda madaniy qo‘shimchalari tekshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo‘nalish filologiyada xalqaro til bilishni raqamli kommunikatsiyaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qaror toptiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATIADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmon. — Toshkent, 2020. — URL: https://lex.uz/docs/5030957 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-son qaror. — Toshkent, 2021. — URL: https://lex.uz/docs/5426736 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar [Elektron resurs]. — Toshkent, 2024. — URL: https://mitc.uz/uz/pages/raqamli-iqtisodiyot (murojaat sanasi: 30.09.2026).

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. «Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 312-son qaror. — Toshkent, 2021. — URL: https://lex.uz/docs/5431842 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmon. — Toshkent, 2022. — URL: https://lex.uz/docs/5841063 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

6. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education — A Tool on Whose Terms? [Elektron resurs]. — Paris: UNESCO, 2023. — URL: https://www.unesco.org/gem-report/en/technology (murojaat sanasi: 30.09.2026).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmon. — Toshkent, 2023. — URL: https://lex.uz/docs/6600413 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment — Companion Volume [Elektron resurs]. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. — URL: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages (murojaat sanasi: 30.09.2026).

9. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives [Elektron resurs]. — Washington, D.C.: World Bank, 2021. — URL: https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2021 (murojaat sanasi: 30.09.2026).

10. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research [Elektron resurs]. — Paris: UNESCO, 2023. — URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693 (murojaat sanasi: 30.09.2026).